

7 Mavzu: Qishloq xo'jaligida moliya, kredit, sug'urta va soliq munosabatlarini boshqarish

Reja

- 1 Agrosanoat majmuini rivojlantirishda moliya, kredit, sug'urta va soliq mexanizmlarini boshqarishning roli.
- 2 Moliya va kreditlash mexanizmi, ularni takomillashtirish yo'llari.
- 3 Soliq va uni takomillashtirish yo'llari.
- 4 Sug'urta bozorini boshqarish.

Kalit so'zlar: moliya, kredit, sug'urta, soliq, moliya mexanizmi, kredit mexanizmi, sug'urta bozori

Foydalangan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar

- 1 Samatov G'.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti.- T.: 2012. - 346 b.
- 2 Umrzoqov O'.P., Toshboev A.J., Rashidov J., Toshboev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti: o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod - moliya, 2008. - 268 b.
- 3 Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: o'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009. - 208 b.

Xorijiy adabiyotlar:

- 1 Charles W. L. Hill, Steven L. McShane. Principles of Management. 13th ed. ISBN 978-0-07-353012-3. -New York, 2008. -529 p.
- 2 Richard L.Daft. Management. 12th ed. ISBN 978-1-285-86198-2. -Boston, 2016. - 798 p.
- 3 Rickky W. Griffin. Fundamentals of Management. 8th ed. ISBN 978-1-285-84904-1. -Texas, 2016. - 547 p.
- 4 Ronald D. Kav, William M. Edwards, Patricia A.Duffv. Farm management. - 6th ed. ISBN 978-0-07-302829-3 - ISBN 0-07-302829-0. -New York, 2008. - 463 p.

Oo'shimcha adabiyotlar

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 vil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-4478- sonli Farmoni.
- 2 Nazimov S., Eshonxo'jayev D. Qishloq xo'jaligida menejment. Namangan, NamMPI, 2001.

Internet savtlari

- 1 www.samqxi.uz - Samarqand qishloq xo'jalik instituti veb-sahifasi
- 2 www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
- 3 www.uzreport.com - Axborot agentligi.
- 4 www.agro.uz - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.

1 Agrosanoat majmuini rivojlantirishda moliya, kredit, sug'urta va soliq mexanizmlarini boshqarishning roli.

Moliya - pul mablag'lari fondlarini yaratish va foydalanish jarayonida iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi iqtisodiy kategoriya.

Molivalash - xalq xo'jaligini rivojlantirish, ijtimoiy - madaniy tadbirlar, mudofaa va boshqa ijtimoiy ehtiyoilar xarajatlarini zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, birlashmalar, korxonalarining o'z mablag'lari, davlat byudjetidan va boshqa manbalardan ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Agrar sohada faoliyat ko'rsatavotgan shirkat xo'jaligi, fermer va dehqon xo'jaliklari uchun moliyalashtirish manbalarini quyidagi shakllarda ifodalash mumkin:

- > Xo'jaliklarning o'z mablag'lari;
- > Qarzga olingan mablag'lar;
- > Byudjet mablag'lari;
- > Xomiytlarning vordamlari;
- > Xalqaro jamg'armalar vordamlari;
- > Xalqaro kredit liniyalari tomonidan ajratiladigan vordamlar.

Bundan ko'rinib turibdiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklarining faoliyati bir nechta moliyaviy manba hisobiga emas, yuqoridagi manbalar hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

O'ishloq xo'jaligi korxonalarining mablag'lari manbalari sotishdan tushgan tushum, amortizatsiya ajratmalari, qat'iy passivlarning o'sgan qismi va boshqalardan tashkil topadi.

Qarzga olingan mablag'lar esa tijorat banklaridan olingan kreditlar va qimmatbaho qog'ozlarni muomalaga chiqarishdan olingan mablag'lardan tashkil topadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shartli ravishda 2 guruhga ajratish mumkin:

- > O'ishloq xo'jalik korxonalarining o'z mablag'lari (voki ichki mablag'lari);
- > Boshqa korxonalarlardan qarzga olingan mablag'lar (tashqi mablag'lar).

O'ishloq xo'jalik korxonalarini moliyaviy jihatdan ta'minlashda byudjet mablag'lari ham ishtirok etadi. Bu o'z navbatida paxta, g'alla va sholi kabi o'ishloq xo'jalik mahsulotlariga davlat buyurtmasining mavjudligi bilan belgilanadi. Davlat buyurtmasining mavjudligi o'ishloq xo'jalik korxonalarining bozordan iste'molchini topish va marketingni minimal darajada bo'lishini ta'minlaydi hamda sotilgan o'ishloq xo'jaligi mahsuloti uchun to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi kafolatlanadi. O'ishloq xo'jaligi korxonalarini molivalash mexanizmini asosiy vo'nalishi moliyaviy mablag'larni diversifikatsiyalashtirish tomonga qaratilganligi bilan belgilash kerak.

Mamlakat miqyosida davlat molivasi tushunchasi bo'lib, davlat molivasining tarkibiy qismi va turli xil mulk shaklidagi korxonalar, birlashmalar, jamoa xo'jaliklari va hokozolardan iborat o'ishloq xo'jalig tarmog'i molivasidir. Tarmoqlar molivasini to'g'ri tashkillashtirish mablag'larning uzluksiz avlanishini, qiymat formalarining silliq o'zgarishini, pul daromadlarining o'z vaqtida tushumini, pul daromadlari to'g'ri taqsimlanishini va foydalanilishini, davlat buyurtmalarini vaqtida bajarilishini ta'minlaydi. Tarmoq molivasi iqtisodiy munosabatlarning pul formasida namovon bo'lib, asosiy vositalar va avlanma mablag'larning avlanishida, mahsulot ishlab chiqarish va sotishda, pul daromadlarining tashkil etilishi va samarali foydalanilishida o'z aksini topadi.

O'ishloq xo'jaligi molivasi iqtisodiy munosabatlarning majmui bo'lib, pul daromadlarining rejali tashkil etilishi, taqsimlanishi va foydalanilishida,

shuningdek ishlab chiqarishni nazorat qilish, milliy daromadni tashkil qilishda yaqqol namovon bo'ladi.

Davlat va korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar quyidagi hollarda sodir bo'ladi:

- > xo'ialik hisobidagi daromadning tashkil etilishida, fovda va turli xil fondlarni vujudga kelishida, daromadning bir qismini yuqori tashkilotlar ixtivorida jamlashda;
- > korxonalar bo'limlari, zvenolari, dehqon, fermer xo'ialiklarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannaxida, sifatli mahsulot yetishtirishda va ularning samaradorlik ko'rsatkichlarida;
- > davlat korxonalari bilan turli xil mulk shaklidagi korxonalarining munosabatlarida voki turli xil mulk shaklidagi korxonalarining o'zaro munosabatlarida, ular o'rtasidagi moddiy texnika resurslarini yetkazib berishda, kapital qurilishda, banklardan olingan kredit munosabatlarida, shuningdek qurilish, yo'l qurilishi va hokozolar bo'yicha hissadorlik uyushmalarini tashkil qilishda;
- > yuqori tashkilotlar ixtivoriga korxonalar daromadining bir qismini berishda;
- > moliva tizimiga yalpi daromaddan to'lov, soliqlar to'lash, ijtimoiy sug'urta munosabatlarida;
- > davlat va xususiy banklar bilan o'zaro aloqalarda.

Yuqorida ta'kidlangan moliyaviy munosabatlarning to'g'ri tashkil etilishi takror ishlab chiqarish samaradorligining yuqori darajada o'sishiga zamin bo'ladi.

O'zaro xo'ialik korxonalari moliyasida ham xalq xo'jaligi moliyasidagi singari quyidagi tamovillarga amal qiladi:

1. Reja alilik (jamg'armalarni rejalashtirish);
2. Mablag'larning ma'lum maqsadlarga qaratilganligi (tuzilgan fondlardan foydalanish);
3. O'zaro bermaslik (byudjetga to'lovlar);
4. Iqtisodiy tejam (samaradorlikni oshirish);
5. Nazorat qilish (yuqori tashkilotlar, banklar va hokozolar xo'ialiklar mablag'lardan qanday foydalanayotganligini nazorat qilish);

O'zaro xo'ialik korxonalar moliyasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi asosiy belgilari quyidagilardir:

1. O'zaro xo'ialik korxonalar moliyasi qishloq xo'ialik tarmog'ida ijtimoiy mahsulotni taqsimlashning zarurligi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy (taqsimlash) munosabatlaridir;
2. O'zaro xo'ialik korxonalar moliyasi - qiymatning pul shaklidagi harakati bilan ifodalangan pul munosabatlaridir;
3. O'zaro xo'ialik korxonalar moliyasi ishtirokida qishloq xo'ialik korxonalar pul jamg'armalari hosil bo'ladi va foydalaniladi.

Moliva vordamida davlat, korxonalar va hokozolar pul daromadlari va jamg'armalari reja asosida tashkil etiladi, taqsimlaniladi va foydalaniladi.

Molivaning mohiyati uning vazifalarida o'z ifodasini topadi:

- > taqsimlash;
- > nazorat qilish.

Moliyaviy nazorat moliva biznes rejalarni tuzishda, ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblashda bank bilan byudjet va boshqa yuqori tashkilotlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni nazorat qilishda o'z aksini topadi. Shuningdek moliva vordamida qishloq xo'ialigi korxonalarining moliyaviy- iqtisodiy ahvoli muntazam iqtisodiy tahlil kilib boriladi va kerakli xulosalar chiqariladi. Molivaning nazorat qilish vazifasida ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi, rejalashtirilgan ko'rsatkichlarning bajarilishi pul mablag'lari, moddiy resurslardan foydalanish, mahsulotning soni va sifati va hokozolar nazorat qilinadi. Moliya nazorat ishlari

moliva organlari xodimlari va korxonalar buxgalter iktisodchilari tomonidan amalga oshiriladi.

O'ishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari moliyaviy ishlarni tashkil etilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi:

1. O'ishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ishlab chiqarish jarayonidagi farqlar, va'ni ishlab chiqarish jarayoni bilan ish davri o'rtasidagi o'zgarish, ishlarning mavsumiyligi. Bu o'z navbatida mablag'larning avlanishiga, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining oshishiga ta'sir etadi.
2. O'ishloq xo'jaligida ayrim mahsulotlar natural ko'rinishga ishlab chiqarish jarayonida aylanadi. Masalan, o'simlikchilikda yetishtirilgan mahsulotlar chorvachilik tarmog'ida vem-xashak sifatida foydalaniladi yoki aylanma mablag'lar tarkibidagi yosh chorva mollari asosiy podaga o'tkaziladi. Bunday tartibda xo'jalik ichida natural ko'rinishda mahsulotlarni ichki aylanishi qo'shimcha ravishda mablag' jalb qilinmasdan ishlab chiqarishning qaytadan tashkil etishga olib keladi.
3. O'ishloq xo'jalik ishlarining mavsumiyligi vil davomida o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini bir maromda ishlab chiqarish va sotish imkoniyatini bermaydi. Bu o'z navbatida pul tushumini vil davomida bir tekis tushmasligiga olib keladi. Bunday mavsumiy notekislikni qoplash uchun qishloq xo'jalik korxonalarida chetdan jalb qilingan kredit resurslaridan foydalanishga ehtiyoj sezadi.
4. O'ishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayoni tabiiy iqlim sharoitiga bog'liq, va'ni turli xil tabiiy ofatlar sodir bo'lishi tufayli qishloq xo'jalik mahsulotlaridan bir maromda yoki ko'zlangan maqsaddagidek hosil, daromad olinmaslik ehtimoli mavjud. Shuning uchun bunday tabiiy hodisalar keltirgan zararni qoplash maqsadida qishloq xo'jaligi korxonalarida pul va natural ko'rinishda sug'urta fondlari tashkil qilinishi kerak.

2 Moliya va kreditlash mexanizmi, ularni takomillashtirish yo'llari.

So'nggi yillarda respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy ahvoli yomonlashib, xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar byudjet, byudjetdan tashqari jamg'armalar, tayyorlov korxonalaridan katta vig'indidagi qarzlari paydo bo'ldi. Hukumat tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinib, qishloq xo'jaligi korxonalariga davlat tomonidan moddiy yordam berish choralari ko'rilmogda. 2001 yil 3 dekabrda «Suv tanqisligi natijasida zarar ko'rgan qishloq xo'jalik korxonalarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq qishloq xo'jalik korxonalarining boshqa tashkilotlar va korxonalar oldidagi 277.7 mlrd so'm miqdordagi qarzlari hisobdan chiqarildi. Natijada qishloq xo'jalik korxonalarining 2002 xo'jalik yilida moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 31 dekabrda farmoniga asosan Moliya Vazirligi huzurida «Davlat ehtivoilari uchun harid qilingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisob-kitobi jamgarmasi» tashkil qilingan bo'lib, mazkur jamg'armaning moliyaviy agentlari «Paxtabank» va «G'allabank» orqali qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan yetishtirilgan paxta xom ashyosi va g'alla uchun vakuniv hisob kitoblar amalga oshirilmoqda. Bu banklar tomonidan 2001 yildagi paxta, g'alla va sholi uchun 357 mlrd so'm to'lovlar amalga oshirilgan.

O'ishloq xo'jaligida moliyaviy ishlarni samarali tashkil etilishi oqibat natijada rentabellik darajasiga, foydaning oshishiga olib kelishi lozim.

Shuningdek, byudjetga to'lovlar, mol vetkazib beruvchilar bank bilan, yuqori moliva tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar yaxshi yo'lga qo'yiladi, ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalaniladi, moliyaviy zahiralardan foydalanish to'g'ri yo'lga qo'yiladi.

Ushbu maqsadda, va'ni moliyaviy ishlar samaradorligini oshirishda moliyaviy ishlar uch yo'nalishda olib boriladi:

- > moliyaviy rejalashtirish;
- > moliyaviy reja bajarilishini ta'minlash, ya'ni tezkor moliyaviy ishlar;
- > nazorat-tahlil ishlari.

Moliyaviy rejalashtirishda biznes-reja, kreditlash, kassa operasivalari va boshqa shu kabi pul mablag'lari bilan taminlash ishlari rejalashtiriladi. Bunday moliyaviy rejalashtirish negizida qo'shimcha moliyaviy zahiralarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish va korxonalar rentabelligini oshirish kiradi.

Moliyaviy reja bajarilishini ta'minlash uchun korxonaning ishchi xodimlari bilan ish haqi to'lash va moddiy rag'batlantirish kabi turli tuman moliyaviy munocabatlari, byudjet bilan, bank bilan, yuqori tashkilotlar bilan bo'ladigan moliyaviy munosabatlarni o'z vaqtida amalga oshirishni ta'minlash tushuniladi.

Moliyaviy ishlarning muhim qismi, bu moliva pejacining bajarilishi ustidan nazorat qilish va tahlil o'tkazishdir. Asosiy e'tibor tezkor nazoratga qaratiladi, bunday nazorat natijasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etiladi, mavjud moliyaviy zahiralalar aniqlanadi. Tezkor nazorat hozirgi kunda ishlar avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan sharoitda yuqori samarasini bermocda.

Bunday tezkor nazorat natijasida va muntazam ravishda ma'lumotlar bilan taminlash oqibatida korxonalar faoliyatini boshqarish tizimida ko'plab yengilliklar hamda qulavliklar tug'iladi.

Moliyani boshqarish tizimi - bu davlat va korxonalarining pul mablag'lari fondini reja asosida tashkil etish va foydalanish tizimi.

Moliva tizimini boshqarish Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Moliva Vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Moliva Vazirligining ioylardagi organlari viloyat moliva boshqarmasi, tuman va shahar moliva bo'limlaridan iboratdir.

Moliva boshqarmasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining boshqa qarorlariga, Prezidentning farmonlari, qarorlari va farmovishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmovishlariga, O'zbekiston Respublikasi Moliva vazirligining Nizomga va boshqa me'voriv aktlarga amal qiladi.

Samarqand viloyat hokimligi moliva boshqarmasi davlat boshqaruvi organi hisoblandi va vagona soliq-byudjet sivosatini tashkil etish faoliyatini amalga oshiradi. Samarqand viloyat hokimligi moliva boshqarmasi tizimiga: shahar va tuman hokimliklarining moliva bo'limlari kiradi.

Moliva boshqarmasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

Samarqand viloyat mahalliy byudjeti loyhasini tavorlash, tasdiqlash, uning bajarilishini ta'minlash, mahalliy byudjetning bajarilganligi haqidagi hisobotni tayyorlash va moliva vazirligiga taqdim etish:

Moliva boshqarmasi zimmasiga yuklatigan vazifalarga muvofiq quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

Iqtisodiyotni rivojlanishi hamda aholi turmush farovonligini oshirish maqsadida soliq sivosati va soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va Moliva vazirligiga taqdim etish;

Byudjetga soliq va boshqa tushumlarni, shuningdek davlat mulkini xususiyashtirishdan hamda davlat ulushiga hisoblangan dividendlar tushishi

ustidan nazorat olib boradi:

Berilgan vakolati doirasida byudiet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi hamda davlat ulushi bo'lgan xo'jalik sub'ktlarda moliya intizomiga rioya etilishini nazorat qiladi;

Shahar va tuman moliva bo'limlari iovlardagi bvudiet lovihalarini tuzadi. korxonalar va tashkilotlarning moliya rejasini bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi, moliyaviy tartib intizomini mustahkamlash chora tadbirlarini amalga oshiradi.

Oishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy ishlar bilan moliya hisob markazi shug'ullanadi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jalik korxonalarini rag'batlantirish va boshqaruv tizimini samaradorligini oshirish uchun moliya tizimiga ham bir qator vazifalar qo'yilgan. Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat turlari bo'vicha 40 ga yaqin banklar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan ASM korxonalariga bank xizmati ko'rsatish bo'vicha «Paxtabank» yetakchi o'rinda turadi.

Bank - tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi vujud shaxs bo'lib, bank faoliyati deb nomlanuvchi quvidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:

S vujud shaxslardan omonatlar qabul qiladi va o'z tavakkalchiligi asosida ular orqali kreditlashni amalga oshiradi;

S to'lovlar qabul qiladi.

Omonat - bu, foiz qiymati bilan voki qo'shimchalar bilan bankka birinchi talabdavoq voki tomonlar o'rtasida kelishilgan muddat tugashi bilan to'lovni oshirgan shaxs voki uning qonuniy vakiliga qaytariladigan pul qiymati.

Bank subvekti - O'zbekiston Respublikasidagi barcha banklar hisoblanadi.

Banklarning huquqiy asosi bo'lib, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» qonun va «Markaziy Bank to'g'risida»gi qonun hisoblanadi.

Banklar o'z faoliyatlari davomida quyidagi bank operatsiyalarini amalga oshiradi:

- > Jismoniy va yuridik shaxslarga hisob-kitob operatsiyalari uchun hisob raqami ochish;
- > Omonat ijamg'armalari qo'vuvchilarni jalb qilish;
- > O'zining va omonatga jalb qilingan mablag'lar hisobiga qaytarib olish, muddatlilik, qoplanganlik shartlari bilan kreditlar berish

Banklar bundan tashqari quyidagi operatsiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin:

- > pul vositalarini o'z egalari bilan tuzilgan shartnoma asosida boshqarish;
- > naqd pulli va naqd pulsiz tartibda jismoniy va yuridik shaxslardan xorijiy valyutalarni sotib olish va sotish;
- > pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob hujjatlarini inkassatsiyalash;
- > uchinchi shaxs sifatida kafolat berish;
- > uchinchi shaxs sifatida majburiyatlarni talab qilishni amalga oshirish;
- > qimmatli qog'ozlarni chiqarish, sotish va sotib olish, hisobini olish va saqlash, mijozlar bilan kelishilgan xolda qimmatli qog'ozlar ustidan nazorat o'rnatish va boshqarish;
- > bank maslahat va axborot xizmatini ko'rsatish;
- > moliyaviy lizing;
- > lizensialangan boshqa bank xizmatlari.

Banklar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan xorijiy banklar Markaziy Bank tomonidan lizensialanadi. Lizenziyada bank faoliyati va bajarishi mumkin bo'lgan operatsiyalar ko'rsatiladi.

Lizenziva olmagan banklar faoliyati noqonuniy hisoblanadi va ular olgan daromadlar davlat hazinasiga o'tkaziladi.

Ushbu qonunchilikka asosan lizenziva olgan bank faoliyati huquqiga ega tashkilotlar bank terminini ishlatilishi mumkin. Bu qoidani buzish qonunchilikka

asosan javobgarlikka tortiladi.

Banklar har qanday mulkchilik shaklida hissdorlik jamiyati shaklida tuziladi. Bank ta'sisчилari bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslar bundan tashqari konuniy hisoblangan xorijliklar, ommaviy jamg'armalar va birlashmalar hisoblanishi mumkin.

Har bir ta'sisчining ulushi ustav kapitalining 35% idan oshib ketmasligi lozim. Bu ko'rsatkich davlatning hissasi uchun chegaralanmagan.

Banklar ustavga asosan faoliyat yuritishadi. Bank ustaviga quyidagilar kiradi:

- > bankning (to'liq va qisqa) nomi va uning jolashgan joyi (pochta manzili);
- > bank operasivalari turlari;
- > ustav kapitali qiymati, unda hissaga ega bo'lgan ta'sisчilar nomlari;
- > bank boshqaruvi haqida ma'lumot, ularning ma'lumotlilik bo'yicha, burchlari va vazifalari;
- > ioriv buxgalteriva hisobi asosida bankni audit kilish tartibi, hisob va hisobot tartibi. Banklarning minimal ustav kapitali Markaziy Bank tomonidan belgilanadi. Banklar

Markaziy Bankdan ro'yxatdan o'tishlari bilan yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Lisenzivalash Markaziy Bank tomonidan amalga oshiriladi. Lisenziva berilishi bilan birgalikda bank faoliyati olib borish huquqi ham beriladi. Banklarni ro'yxatdan o'tkazish va lisenziva berish pullik shaklda amalga oshiriladi.

Banklar filiallari Markaziy Bankdan ro'yxatdan o'tishadi va ta'sisчи bankdan lisenziva olishadi.

Markaziy Bank quyidagi hollarda ro'yxatdan o'tkazishga rad javobini berishi mumkin:

- > ro'yxatdan o'tkazish uchun kerakli hujjatlar taqdim etilmaganda;
- > tashkilotlar hujjatlari qonuniy bo'lmaganda;
- > bir voki bir necha ta'sisчilarining molivaviv ahvoli qoniqarsiz bo'lganda;
- > bankning ustav kapitali minimal miqdordan kam bo'lganda;
- > bank rahbari va bosh buxgalteri lavozimiga da'vogarning kasbiy mahorati yetishmagan holda.

Banklarning boshqaruv organi hissadorlarning umumiy yig'ilishi, bank kengashi va boshqaruv apparatidan iborat.

Bank kengashi vazifalariga quyidagilar kiradi:

- > bank faoliyati ustidan, shu jumladan omonatchilar va hisadorlarni manfaatini himoya qilish maqsadida kreditlash va investisiyalashtirish jarayonini nazorat qilish;
- > bank rahbarlarini belgilash va ishdan bo' shatish;
- > bank sivosatini shakllantirish;
- > qonuniylikni ta'minlash.

Bank kengashi a'zolari soni 5 kishidan kam bo'lmasligi kerak. Bank kengashi a'zolari, hissadorlardan tashkari bank sohasi olimlari va mutaxassilari bo'lishi lozim.

Bankning ioriv boqaruv organi bank boshqaruv apparati hisoblanib, banktezkor boshqaruvni amalga oshiradi va bank faoliyati uchun javobgar bo'ladi. Boshqaruv apparati bank kengash va hissadorlarning umumiy yig'ilishida saylanadi.

Banklar o'z hujjatlarini Markaziy Bank belgilagan tartibda arxivlashtiradilar.

Bank va mijozlar o'rtasidagi munosabatlar shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Banklar operasivalar, omonatlar, mijozlarining hisob raqamlarini sir saqlashga kafolat beradilar. Bankning hamma xizmatchilari operasivalar,

omonatlar, mijozlarining hisob raqamlarini sir saqlashlari lozim.

Operasivalar vuzasidan ma'lumotlar hisob raqam egasiga, prokuraturaga, sudlarga va jinoiy qo'zg'atilgan hollarda tergov organlariga beriladi.

3 Soliq va uni takomillashtirish yo'llari.

Davlat soliq qo'mitasi soliq qonunchiligiga rioya etilishini, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoya qilinishini ta'minlash sohasidagi nazorat bo'vicha respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

DSOning tashkiliy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 vil 8 vanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini vanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PO- 1257-son qarori bilan tasdiqlangan.

Davlat soliq qo'mitasi tizimiga O'raqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari, shuningdek tasarrufidagi tashkilotlar va ta'lim muassasalari kiradi.

Davlat soliq qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitusivasiga, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuniga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi.

Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 vil 21 maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni vanada takomillashtirish to'g'risida»gi 98-son qarori bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilar:

- davlat soliq sivosatini amalga oshirish va soliq qonunchiligiga, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishiga, ularning to'liq va o'z vaqtida to'lanishiga rioya qilinishi vuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudietiga, davlatning maqsadli jamg'armalariga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'liq miqdorda tushishini ta'minlash;

- soliqlar vig'ilishini ko'paytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, ma'lumotlarning vagona kompyuter bazasini yuritish asosida soliq to'lovchilarni hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish, ularga ko'rsatilavotgan axborot-maslahat xizmatlari sohasini kengaytirish, soliq sohasida huquq buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni ro'yobga chiqarish;

- pul mablag'larining noqonuniy muomalada bo'lishi manbalarini bartaraf etish, aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd tushumning o'z vaqtida va to'liq topshirilishi vuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini rag'batlantirish bo'vicha qonun hujjatlarini vanada takomillashtirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensivalar berish vuzasidan takliflar kiritish;

- dehqon bozorlari va savdo komplekslarining moliva-xo'jalik faoliyatini, ular tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishini qattiq nazorat qilish hamda jinoiy ishlarni huquqni muhofaza qilish organlariga topshirgan holda ularning hududlarida aniqlangan huquq buzilishlari bo'vicha surishtiruvlar o'tkazish;

- respublika nazorat qiluvchi organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar

faolivatini tekshirish masalalari bo'vicha ishlarini muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ushbu ishni amalga oshirishda bir- birini takrorlashga va suiiste'molchiliklarga vo'l qo'ymaslik:

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta va eksport-import operasivalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga qat'iv rioya etilishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni o'z vakolatlari doirasida amalga oshirish;

- soliq xizmati organlarini halol, vuqori malakali xodimlar bilan ta'minlash, korrupsiva va ishga rasmivatchilik bilan munosabatda bo'lish holatlariga qat'iv ravishda barham berish bo'vicha tizimli ish olib borish, doimiy asosda kadrlarni qayta tavvorlash va ularning malakasi oshirib borilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan soliq sohasidagi hamkorligi

O'zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida dunvoning boshqa mamlakatlari bilan soliqqa tortish sohasidagi shartnomaviy-huquqiy bazani mustahkamlash bo'vicha sivosatni sobitqadamlik bilan vuritmoqda. 1993 vildan boshlab Davlat soliq qo'mitasi soliqqa tortish sohasida vaqin va uzoq xoriidagi mamlakatlar bilan xalqaro shartnomalar tizimini shakllantirish bo'yicha ishlar olib bormoqda.

Bugungi kunda dunvoning xar hil mamlakatlari bilan 76 ta ikki tomonlama shartnomalar imzolangan. Jumladan:

1. Ikki tomonlama soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik, daromad va kapital solig'ini to'lashdan bosh tortishning oldini olish to'g'risidagi shartnomalar.

Jahon mamlakatlari o'rtasida soliq sohasiga oid ko'plab shartnomalarning tuzilishi bir qator umume'tirof etilgan xalqaro standartlarning ishlab chiqilishiga olib keldi. Ikki tomonlama soliqqa tortishga vo'l qo'ymaslik maqsadida hamma mamlakatlar ularga riova qilishga harakat qilishadi. O'zbekiston tomonidan tuzilgan va tuzilavotgan shartnomalar IHTT tomonidan ishlab chiqilgan shartnoma modeliga asoslangan.

Bugungi kunda O'zbekiston ikki tomonlama soliqqa tortishga vo'l qo'ymaslik, daromad va kapital solig'ini to'lashdan bo'vin tovlashning oldini olish haqida 54 ta shartnoma imzolagan (ushbu shartnomalarning 48 tasi kuchga kirgan va amalda qo'llanilmoqda). Bunday shartnomalar yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va mol- mulk solig'iga tegishlidir. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 4-moddasiga muvofiq, vuqoridagi shartnomalar xalqaro xarakterdagi hujjatlar sifatida milliy qonunchilik me'vorlaridan ustun hisoblanadi.

Shunday qilib, shakllantirilavotgan ikki tomonlama soliqqa tortishga vo'l qo'ymaslik, daromad va kapital solig'ini to'lashdan bo'vin tovlashning oldini olish haqidagi shartnomalar tizimi O'zbekiston Respublikasining boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligini samarali vo'lga qo'vishga va eng avvalo, o'zaro sarmovalarni jalb qilish hamda tashqi savdo tovar almashinuvining o'sishiga ko'maklashadi.

So'nggi vaqtlarda ikki tomonlama soliqqa tortishga vo'l qo'ymaslik va ularga tuzatmalar kiritish haqidagi protokollar: - Singapur, Ummon Sultonligi, Xitov Xalq Respublikasi, Chexiya Respublikasi va hindiston Respublikasi bilan imzolandi; Bitimlar: - Iordaniya hoshimivlar Podshohligi, Irlandiya hukumati, Estoniya Respublikasi, Sloveniya Respublikasi va Ispaniya qirolligi bilan imzolandi.

2. Soliq qonunchiligiga amal qilish, shuningdek, soliq qonunchiligini buzishga qarshi kurash bo'yicha o'zaro yordam va hamkorlik masalalari va soliqqa tortish sohasida axborot almashish to'g'risidagi shartnomalar.

Bugungi kunga kelib 17 ta shunday shartnoma imzolangan. Shu bilan birga bir hator MDH davlatlari, shuningdek, Latviya, Ummon va Koreya Respublikasi

bilan hamkorlik va tajriba almashish bo'vicha idoralararo kelishuvlar tuzilgan. Davlat soliq qo'mitasi ushbu kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi.

Boshqa mamlakatlarning soliq xizmatlari bilan o'zaro yordam va hamkorlik haqida tuzilgan shartnomalar quyidagi afzalliklarni beradi:

- paritet asosida shartnoma tuzavotgan mamlakatlarning soliq nazoratida soliq qonunchiligi buzilishlarini aniqlash va oldini olish sohasidagi mavjud imkoniyatlaridan foydalanish;

- xorijiy mamlakatlarning soliq ma'murchiligi sohasidagi ijobiy tajribasini o'rganish va undan foydalanish;

- O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati xodimlarining kasbiy mahorati o'sishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish.

3. Bilvosita soliqlarni undirish tamovillari to'g'risidagi shartnomalar.

Hozirgi paytga kelib, MDHning bir qator mamlakatlari bilan shu xildagi 5 ta shartnoma imzolangan. Ular eksport-import operasivalarini qo'shimcha qiymat solig'i va aksiz solig'iga tortish, o'zaro tovarlar va xizmatlar yetkazib berish tartiblarini belgilaydi hamda savdo iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, haqqoniy raqobat va xo'jalik subyektlari uchun teng imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi.

Oavd etish kerakki, yuqorida keltirilgan xalqaro shartnomalarning bajarilishi O'zbekiston Respublikasini jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli iqtisodiy integrasivalashuviga, mamlakat xo'jalik subyektlarining manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashadi.

2010 vil 22 novabrda Amman shahrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Iordaniya Hoshimiylar Qirolligi Hukumati o'rtasida ikki tomonlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik hamda daromad solig'ini to'lashdan bosh tortishning oldini olish to'g'risidagi Bitim imzolandi va O'zbekiston Respubliki Prezidentining 2011 vil 11 apreldagi «Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-1518-sonli qarori bilan tasdiqlandi hamda 2011 yil 13 iyulda kuchga kirdi.

2011 vil 18 aprelda Pekin shahrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitov Xalq Respublikasi Hukumati o'rtasida ikki tomonlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik hamda daromad solig'ini to'lashdan bosh tortishning oldini olish to'g'risidagi 1996 vil 3 iyulda imzolangan Bitimga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi Protokol imzolandi va O'zbekiston Respubliki Prezidentining 2011 vil 18 iyuldagi «Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-1580-sonli qarori bilan tasdiqlandi hamda 2011 vil 30 dekabrda kuchga kirdi.

2011 vil 14 iyunda Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Singapur Respublikasi Hukumati o'rtasida ikki tomonlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik hamda daromad solig'ini to'lashdan bosh tortishning oldini olish to'g'risidagi 2008 vil 24 iyulda imzolangan Bitimga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi Protokol imzolandi va O'zbekiston Respubliki Prezidentining 2011 vil 3 avgustdagi «Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-1593-sonli qarori bilan tasdiqlandi hamda 2011 vil 1 novabrda kuchga kirdi.

2011 vil 14 vanvarda Jahon banki missivasining O'zbekistonga tashrifi doirasida Davlat soliq qo'mitasi Raisi bilan O'zbekistondagi investision muhit va biznes boshqaruvi mavzularida uchrashuv o'tkazildi.

Jahon banki xodimlari tomonidan kelgusida ham O'zbekistonda soliq ma'murchiligini rivojlantirish borasida hamkorlik davom ettirilishi bildirildi.

2011 vil 18, 25 vanvar va 2 fevralda «O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirish» lovihasi bo'vicha Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) xodimlari bilan Davlat soliq qo'mitasi xodimlari o'rtasida loyiha yakunlariga bag'ishlangan uchrashuv o'tkazildi.

Mazkur loyiha to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni

kadrlar tayyorlash, soliq tekshiruvi, soliqqa tortish va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish.

Uchrashuv o'tkazishdan maqsad qavd etilgan loyiha bo'yicha hamkorlikni yakuniy baholash. 18 yanvarda bo'lib o'tgan uchrashuvda Davlat soliq qo'mitasi va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan kelgusidagi hamkorlik hamda 2011 yil 25 yanvar - 4 fevral kunlari O'zbekistonga loyiha yakunlari bo'yicha agentlik ekspertlari tashrifi yuzasidan muzokaralar o'tkazildi.

Shuningdek, Davlat soliq qo'mitasi xodimlari tomonidan 2011-2012 yillarda qo'mitada Ma'lumotlar bazasini qayta ishlash markazi tashkil etilishi to'g'risida agentlik xodimlari tanishtirildi.

25 yanvarda esa «O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirish» loyihasi yakuni doirasida amalga oshiriladigan ishlar, natijalar va qilinishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha reja- topshiriqlar ishlab chiqildi va fevralda bo'lib o'tadigan muzokaralarda muhokama qilinishi bildirildi.

1 fevralda «O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirish» loyihasi yakuni doirasida amalga oshirilgan ishlar, natijalar va kelgusida soliq ma'murchiligini takomillashtirish yuzasidan qilinishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida muhokama qilindi.

2011 yil 24 yanvarda Koreva Respublikasining «KOGAZ» kompaniyasi rahbarlari bilan Davlat soliq qo'mitasi Raisi o'rtasida O'zbekistondagi investision muhit mavzusida uchrashuv o'tkazildi.

Mazkur uchrashuv O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investisivalarni, jumladan, Koreva Respublikasi korxonalari, avnan «KOGAZ» kompaniyasining neft va gaz sohalariga investisiyalar kiritishiga xizmat qiladi.

2011 yil 28-30 mart kunlari Davlat soliq qo'mitasida 2000 yil 2 marta imzolangan O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Chexiya Respublikasi Hukumati o'rtasida ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish to'g'risidagi Bitimga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha Bayonnoma loyihasi yuzasidan ekspertlar darajasidagi muzokaralar o'tkazilib, natijada Bayonnoma loyihasi parafinlashtirildi va Ahdlashuv memorandumi imzolandi.

2011 yil 10-13 may kunlari Davlat soliq qo'mitasida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Estoniya Respublikasi Hukumati o'rtasida ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish to'g'risidagi Konvensiya loyihasi yuzasidan ekspertlar darajasidagi muzokaralar o'tkazilib, natijada Konvensiya loyihasi parafinlashtirildi va Ahdlashuv memorandumi imzolandi.

2011 yil 24-27 may kunlari Davlat soliq qo'mitasida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Irlandiya Hukumati o'rtasida ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish to'g'risidagi Konvensiya loyihasi yuzasidan ekspertlar darajasidagi muzokaralar o'tkazilib, natijada Konvensiya loyihasi parafinlashtirildi va Ahdlashuv memorandumi imzolandi.

2011 yil 14 iyun kuni Davlat soliq qo'mitasida B.Parpivev va Singapurning O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi janob Zulkifli bin Bahoruddin o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Singapur Respublikasi Hukumati o'rtasidagi ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo'yicha Bitimga o'zgartirish kiritish haqida Bayonnoma imzolandi.

2011 yil 16 avgust kuni Davlat soliq qo'mitasida Xalqaro moliya korporatsiyasi xodimlari ishtirokida O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda yaxshilash borasida yangi loyihani tadbiiq etish masalasi yuzasidan uchrashuv tashkillashtirildi.

2011 yil 14 oktyabr kuni Jahon banki missiyasining O'zbekistonga tashrifi doirasida Davlat soliq qo'mitasining mas'ul xodimlari bilan Informasion va aloqa texnologilarini amalga tadbiiq qilishni tezlashtirish hamda xususiy sektorni

rivojlantirishga amaliy ko'mak mavzusida uchrashuv o'tkazildi.

2011 vil 11 novabr kuni Davlat soliq qo'mitasida Xalqaro valyuta fondi xodimlari ishtirokida O'zbekistonda soliq ma'murchiligi, 2010-2011 villarda soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar va ularning sabablari, shuningdek kiritilgan o'zgartirishlarni baholash mavzusida uchrashuv tashkillashtirildi.

2011 vil 18 novabr kuni Davlat soliq qo'mitasida Xalqaro moliva korporatsiyasi xodimlari ishtirokida O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirish borasida yangi loyihani tadbiq etish masalasi yuzasidan uchrashuv tashkillashtirildi.

2011 vil 25 novabr kuni Singapurning O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi janob Zulkifli bin Bahoruddinining diplomatik missiyasi vakunlanishi sababli Davlat soliq qo'mitasida B.Parpiyev va janob Elchi o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

2012 vil 4 aprelda Seul shahrida (Koreya) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Koreya Milliy soliq xizmati o'rtasida soliq masalalari bo'yicha axborot almashishi to'g'risidagi Bitim imzolandi.

2012 vil 11 aprelda Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Hindiston Respublikasi Hukumati o'rtasida ikki tomonlama soliq solishga vo'l qo'ymaslik hamda daromad va sarmovadan soliq to'lashdan bosh tortishning oldini olish to'g'risidagi 1993 vil 29 iyulda imzolangan Bitimga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi Protokol imzolandi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 vil 3 iyuldagi «Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-1782-sonli qarori bilan tasdiqlandi hamda 2012 vil 20 iyulda kuchga kirdi.

2012 vil 11 iyulda Dublin shahrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Irlandiya Hukumati o'rtasida ikki voqlama soliq solinishiga vo'l qo'ymaslik hamda daromad va mol-mulk solig'ini to'lashdan bosh tortishning oldini olish to'g'risida Konvensiya imzolandi.

2012 vil 28 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining navbatdagi assambleyasida O'zbekiston Respublikasi va Estoniya Respublikasi o'rtasida ikkivoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo'yicha Hukumatlararo bitim imzolandi.

4 Sug'urta bozorini boshqarish.
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUG'URTA BOZORI

MA'LUMOT

No t/r	Sug'urta tashkilotining nomi	Sug'urta mukofotlari	2011y. ga nisbati (% da)	Sug'urta to'lovlari
1	"Uzagrosugurta" DASK	50,602,018.40	134.86	7,456,642.80
2	NKEIS "Uzbekinvest"	43,103,968.16	137.70	6,254,155.57
3	SK "Asia insurers"	29,294,716.08	149.30	10,520,186.63
4	"Kafolat" DASK	20,912,060.40	140.41	2,244,300.00
5	SK "Transinsurance"	18,747,195.36	145.21	2,245,881.59
6	ST "Uvt inshurans"	14,035,816.83	99.73	2,017,831.00
7	OAJ "Kapital Sugurta"	13,624,900.48	136.10	2,269,600.13
8	SK "Alskom"	13,305,286.00	136.88	1,060,086.68
9	SK "Temir yullari"	11,268,487.30	136.14	306,929.20
10	SK "Alfa Invest"	10,748,350.06	96.88	1,592,320.50
11	SZAO "Inso"	7,618,119.68	99.85	1,167,228.19
12	DSK "Uzbekinvest"	7,155,203.60	148.28	3,779,572.14
13	OAJ "Aero Invest"	6,829,537.42	140.89	922,126.79
14	SSK "Universal"	4,290,701.50	119.91	605,991.99
15	MChJ "Xalk sugurta"	4,177,842.34	276.84	472,294.90
16	MSK "Ishonch"	3,458,585.17	144.02	289,719.37
17	MChJ "Sug'urta O'z"	3,404,745.45	253.45	136,863.13
18	MChJ "GROSS INSURANCE"	2,700,370.51	-	4,602.78
19	MChJ "Euroasia"	2,601,648.08	153.19	178,469.24
20	SK "Kafil sug'urta"	2,581,845.85	199.75	27,043.41
21	SK "Asko Vostok"	2,111,866.96	143.65	10,512.17
22	OAJ "Chartis"	1,777,693.00	158.60	1,464,898.00
23	MChJ "DD-General Insurance"	1,576,852.57	222.10	167,110.86
24	OAJ "Silk Road"	1,485,420.43	140.86	67,939.96
25	DSK "Alfa Layf"	1,449,559.21	154.86	466,134.84
26	MChJ "Global Insurance Group"	1,163,837.23	102.70	13,916.10
27	DSK "Garant Insurans"	1,150,560.54	273.88	45,852.60
28	SK "Unipolis"	1,007,999.20	52.54	22,783.95
29	MChJ "Mega inshurans"	1,005,773.00	80.57	40,815.90
30	MChJ "Xamkor sugurta"	991,764.23	290.58	24,196.96
31	SK "ARK sugurta"	810,687.55	82.19	85,403.00
32	SA "Madad"	630,586.60	68.12	44,649.93
33	SK "Finans sug'urta"	261,520.34	21.01	-
	Jami:	285,885,519.52	134.81	46,006,060.29

* - xisobotda lisenziyasi bekor qilingan sug'urtalovchilarning (SPK "Transinshuerans"; MChJ "Standard insurance"; SK "Inter Tesco"; ISP "Yunibaltik inshurans") ko'rsatkichlari inobatga olinmagan.

2012 yil yakuni va 2011 yilning tegishli davri bilan taqqoslama

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUG'URTA BOZORI
2012 yil yakunlari va 2011 yilning tegishli davri bilan taqqoslama
MA'LUMOT

	2011 yil bo'yicha	2012 yil bo'yicha
UMUMIY USTAV KAPITALI,	245,941,222.3	289,369,504.0
ming so'mda	111,850,782.5	150,987,138.0
ming AQSh dollarida	69,265.2	69,749.2
SUG'URTA MUKOFOTI, undan:	212,061,135.5	285,885,519.5
Ixtiyoriy sug'urta	149,353,382.8	206,797,188.1
Majburiy sug'urta, undan:	62,707,752.7	79,088,331.5
Transport vositasi egalarining FJMS	40,815,815.1	46,999,812.4
Ish beruvchining FJMS	13,311,388.4	19,041,477.2
SUG'URTA TO'LOVLARI,	44,499,859.2	46,006,060.3
Ixtiyoriy sug'urta	32,370,420.8	32,100,689.48
Majburiy sug'urta, undan:	12,129,438.3	13,905,370.84
Transport vositasi egalarining FJMS	6,218,718.3	6,357,409.2
Ish beruvchining FJMS	3,969,467.9	4,786,633.6
AMALDAGI ShARTNOMALAR, ulardan:	5,807,960	6,092,723
Ixtiyoriy sug'urta	4,357,833	4,559,852
Majburiy sug'urta, undan:	1,450,127	1,532,871
Transport vositasi egalarining FJMS	1,412,324	1,494,159
Ish beruvchining FJMS	36,426	36,565
SUG'URTA MAJBURIYATLARI, ulardan:	91,790,552,523.3	111,265,072,875.5
Ixtiyoriy sug'urta	72,270,485,541	83,886,564,796.2
Majburiy sug'urta, undan:	19,520,066,982	27,378,508,079.3
Transport vositasi egalarining FJMS	7,352,239,270	8,521,832,713.4
Ish beruvchining FJMS	9,649,253,853	12,803,826,010.4
INVESTISIYALAR, ulardan:	367,341,102.0	469,329,291.1
Depozitlar (omonatlar)	165,704,472.9	217,885,969.1
Qimmatli qog'ozlar	151,488,673.0	191,840,743.5
3,565,772.4	5,822,391.6	Zaymlar
Ko'chmas mulk	23,892,034.1	19,432,308.0
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	20,494,759.1	31,900,832.6
Boshqa investisiyalar	2,195,390.5	2,447,046.4

Nazorat uchun savollar:

1. Moliya nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
2. Sug'urta bozori deganda nimani tushunasiz?
3. Soliq tizimi qanday boshqariladi?
4. Banklarda litsenzivalash tartibi qanday?
5. Kreditga ega bo'lish uchun nima qilish kerak?